



UDK:159.954-077.(058.3)

**Gulfira DUMAROVA,**

Andijon davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi

E-mail: [dumarovagulfira84@gmail.com](mailto:dumarovagulfira84@gmail.com) ORCID: 0009-0000-1735-9667

ADU dotsenti, PhD B.Parmonov taqrizi asosida

### OILAVIY ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARDA IJTIMOY STIGMANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda ijtimoiy stigma fenomenining psixologik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda stigma tushunchasining mazmuni, uning shakllanish omillari hamda zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarning psixik holatiga ta‘siri ilmiy-nazariy va empirik jihatdan yoritilgan. Xususan, jamiyat tomonidan qo‘yiladigan stereotiplar, ijtimoiy rad etilish, ayblash va uyat hissining shakllanishi ayollarning o‘z-o‘zini baholash darajasi, ruhiy barqarorligi hamda ijtimoiy moslashuviga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy stigma natijasida yuzaga keladigan depressiv holatlar, xavotir, ijtimoiy izolyatsiya va travmatik tajribalar chuqur tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** oilaviy zo‘ravonlik, ijtimoiy stigma, psixologik xususiyatlar, ayollar psixologiyasi, travma, depressiya, xavotir, ijtimoiy izolyatsiya, stereotiplar, ijtimoiy moslashuv, psixologik yordam, stigma reduksiyasi.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНОЙ СТИГМЫ У ЖЕНЩИН, ПЕРЕЖИВШИХ ДОМАШНЕЕ НАСИЛИЕ

Аннотация

В данной статье всесторонне анализируются психологические особенности феномена социальной стигмы у женщин, переживших домашнее насилие. Исследование охватывает содержание концепции стигмы, факторы ее формирования и ее влияние на психическое состояние женщин, ставших жертвами насилия, с научной, теоретической и эмпирической точек зрения. В частности, обосновывается, что стереотипы, навязываемые обществом, формирование социального отторжения, обвинение и стыд негативно влияют на самооценку женщин, их психическую устойчивость и социальную адаптацию.

**Ключевые слова:** домашнее насилие, социальная стигма, психологические характеристики, женская психология, травма, депрессия, тревога, социальная изоляция, стереотипы, социальная адаптация, психологическая помощь, снижение стигмы.

### PSYCHOLOGICAL FEATURES OF SOCIAL STIGMA IN WOMEN EXPERIENCED BY DOMESTIC VIOLENCE

Annotation

This article comprehensively analyzes the psychological features of the phenomenon of social stigma in women who have experienced domestic violence. The study covers the content of the concept of stigma, its formation factors, and its impact on the mental state of women who are victims of violence from a scientific, theoretical, and empirical perspective. In particular, it is substantiated that stereotypes imposed by society, the formation of social rejection, blame, and shame negatively affect women's self-esteem, mental stability, and social adaptation. The article also provides an in-depth analysis of depressive states, anxiety, social isolation, and traumatic experiences resulting from social stigma.

**Keywords:** domestic violence, social stigma, psychological characteristics, women's psychology, trauma, depression, anxiety, social isolation, stereotypes, social adaptation, psychological support, stigma reduction.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida inson huquqlari, ayniqsa, ayollar huquqlarini himoya qilish masalasi dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Oilaviy zo‘ravonlik esa ushbu muammolarning eng og‘ir va murakkab ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat jismoniy, balki psixologik, ijtimoiy va ma‘naviy zararlarga ham olib keladi. So‘nggi yillarda mazkur muammo xalqaro va milliy darajada keng o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, uning ayrim psixologik jihatlari, xususan, ijtimoiy stigma bilan bog‘liq tomonlari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Ijtimoiy stigma – bu jamiyat tomonidan muayyan shaxs yoki guruhga nisbatan salbiy stereotiplar, kamsituvchi qarashlar va rad etish shaklida namoyon bo‘ladigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollar ko‘pincha nafaqat zo‘ravonlik oqibatlaridan, balki jamiyat tomonidan yuklatiladigan “ayb”, “uyat” va “sabr qilish kerak” kabi stereotiplardan ham aziyat chekadi. Bu esa

ularning psixologik holatini yanada og‘irlashtirib, o‘z-o‘zini baholash darajasining pasayishi, ichki konfliktlar kuchayishi va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stigma fenomeni zo‘ravonlik qurbonlarining yordam so‘rashga bo‘lgan tayyorgarligini sezilarli darajada pasaytiradi hamda muammoni yashirishga undaydi. Natijada, zo‘ravonlikning takrorlanish ehtimoli ortadi va jabrlanuvchilarning ruhiy salomatligi jiddiy xavf ostida qoladi. Shu bois, oilaviy zo‘ravonlik va ijtimoiy stigma o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda uning psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarda ijtimoiy stigma fenomenining psixologik xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun stigma shakllanishining omillari, uning ayollar psixikasiga ta‘siri hamda ijtimoiy moslashuv jarayonidagi o‘rni o‘rganiladi.

Tadqiqot natijalari asosida stigma darajasini kamaytirishga qaratilgan psixologik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Oilaviy zo'ravonlik va unga bog'liq ijtimoiy stigma muammosi zamonaviy psixologiya, sotsiologiya hamda gender tadqiqotlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur fenomenini o'rganishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular stigma mohiyati, uning shakllanish mexanizmlari hamda jabrlanuvchilarning psixologik holatiga ta'sirini izlashga qaratilgan.

Ijtimoiy stigma tushunchasi ilk bor E.Goffman tomonidan tizimli ravishda o'rganilib, u "ijtimoiy jihatdan qabul qilinmagan belgi" sifatida talqin qilingan. Goffman nazariyasiga ko'ra, stigma individning ijtimoiy identifikatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning jamiyatdagi maqomini pasaytiradi va ijtimoiy chetlanishga olib keladi. Keyingi tadqiqotlarda stigma fenomeni yanada kengaytirilib, uning strukturaviy, madaniy va psixologik komponentlari ajratib ko'rsatildi.

Zamonaviy tadqiqotchilardan B.Link va J.Phelan stigma jarayonini ijtimoiy kuch munosabatlari bilan bog'lab, uni "yorliqlash, stereotiplash, ajratish va diskriminatsiya" bosqichlari orqali izlashadi. Ularning fikricha, stigma faqat individual darajadagi hodisa emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklar va hukmron qarashlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu yondashuv oilaviy zo'ravonlik qurbonlariga nisbatan jamiyatda shakllanadigan salbiy munosabatlarni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollar psixologiyasini o'rganishda L.Walker tomonidan ishlab chiqilgan "zo'ravonlik sikli" nazariyasi alohida o'rin tutadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, zo'ravonlik takrorlanuvchi bosqichlardan iborat bo'lib, jabrlanuvchi ayollarda o'zini ayblash, qo'rquv va umidsizlik hissining kuchayishiga olib keladi. Bu holat esa stigma bilan qo'shilib, ayollarning passiv xulq-atvorini mustahkamlaydi.

Shuningdek, J.Herman travma nazariyasida zo'ravonlik qurbonlarining psixologik jarohatlanishi, xususan, posttravmatik stress buzilishi, depressiya va dissotsiativ holatlar keng tahlil qilingan. Herman ta'kidlaganidek, travmatik tajriba nafaqat individual psixikada, balki ijtimoiy munosabatlarda ham iz qoldiradi, bu esa stigma orqali yanada kuchayadi.

Xorijiy tadqiqotlarda ayollarga nisbatan zo'ravonlik va stigma o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab empirik ishlarda o'z tasdig'ini topgan. Xususan, M.Flood hamda Sylvia Walby

tadqiqotlarida gender stereotiplari va patriarxal qarashlar ayollarning zo'ravonlikka duch kelish ehtimolini oshirishi hamda ularni ijtimoiy jihatdan himoyasiz holatga keltirishi ko'rsatib berilgan.

MDH va o'zbek olimlari tomonidan ham mazkur muammo turli jihatlarida o'rganilgan. Jumladan, oila va nikoh psixologiyasi doirasida ayollarning ijtimoiy rollari, oilaviy munosabatlar dinamikasi va konfliktlar psixologiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotlarda milliy mentalitet, an'anaviy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar stigma shakllanishida muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, "uyat", "sabrlik" va "oila sha'nini saqlash" kabi ijtimoiy qadriyatlar ayollarning zo'ravonlik holatini yashirishga olib kelishi qayd etilgan.


Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarda ijtimoiy stigma muammosi kompleks tarzda, ya'ni psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar integratsiyasida yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, o'zbek jamiyati kontekstida stigma fenomenining psixologik xususiyatlarini empirik asosda tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifa sifatida qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarda ijtimoiy stigma fenomenining psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks yondashuv asosida sifat va miqdoriy metodlar uyg'unligidan foydalanildi. Tadqiqot dizayni tavsifiy-korrelyatsion xarakterga ega bo'lib, stigma darajasi va uning psixologik ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashga yo'naltirilgan.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida turli yosh, ijtimoiy maqom va oilaviy holatga ega bo'lgan, oilaviy zo'ravonlik tajribasiga ega ayollar tanlab olindi. Tanlanma maqsadli (purposive sampling) usulda shakllantirilib, unda ijtimoiy himoya markazlari, psixologik maslahat xizmatlari hamda nodavlat tashkilotlar orqali murojaat qilgan respondentlar jalb etildi. Tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriylik, maxfiylik va etik me'yorlarga qat'iy rioya qilish tamoyillari asosida tashkil etildi.

Ma'lumotlarni yig'ishda bir nechta psixodiagnostik metodikalaridan foydalanildi. Jumladan, ijtimoiy stigma darajasini aniqlash uchun moslashtirilgan stigma shkalasi, shuningdek, respondentlarning psixologik holatini baholash maqsadida depressiya va xavotir darajasini o'lchovchi standart testlar qo'llanildi. Qo'shimcha ravishda, yarim tuzilgan intervyu usuli orqali ishtirokchilarning shaxsiy tajribalari, ijtimoiy munosabatlari va stigma bilan bog'liq subyektiv kechinmalari chuqur o'rganildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligi va mazmuniy boyligini oshirishga xizmat qildi.

#### Tahlil va natijalar.



2.1-diagramma. Faktor omilining nisbiy yuklamalarini taqsimoti

Diagrammada tashqi ijtimoiy stigma va "gap-so'z" omilini tashkil etuvchi bandlarning faktor yuklamalari doira ko'rinishidagi diagramma orqali aks ettirilgan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, "Er-xotin orasidagi gap tashqariga chiqmasligi kerak" normasi mazkur omil tarkibida eng katta nisbiy yuklamaga ega bo'lib, bu jamiyatda oilaviy muammolarni yashirishga qaratilgan ijtimoiy bosimning yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Ushbu norma oilaviy

zo'ravonlik holatlarini oshkor qilishni cheklovchi asosiy ijtimoiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, "oilaviy muammolar 'gap-so'z' bo'lishidan qo'rquv" hamda "qarindosh-urug' va qo'ni-qo'shnilar oldida noqulaylik" bandlari yuqori nisbiy yuklamalar bilan ifodalangan bo'lib, tashqi ijtimoiy stigmaning shakllanishida yaqin ijtimoiy muhitning roli muhim ekanligini ko'rsatadi. Bu holat ayollarning zo'ravonlik

tajribasini ijtimoiy baholanishdan qo'rqan holda yashirishga moyilligini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, "muammo ayol aybi sifatida baholanishi" hamda "jamiyatda ayolning salbiy baholanishi" bandlari ham mazkur omil tarkibida sezilarli nisbiy ulushga ega. Ushbu bandlar jamiyatda ayollarga nisbatan mavjud stereotipik qarashlar va ayblovchi yondashuvlar tashqi

ijtimoiy stigmaning barqaror shakllanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

1-jadval

Ichki stigmatizatsiya, uyat va o'zini ayblash bo'yicha faktor yukalamalari

(N=283 faktorli tahlil)

Savol raqami	Savol mazmuni	Faktor yuklamasi
6	Muammolar uchun o'zini aybdor his qilish	0,73
7	"Uyat bo'ladi" sabab his-tuyg'ularni yashirish	0,77
8	Zo'rvonlikka o'zi sababchi deb o'ylash	0,69
9	Muammolarni aytishga uyalish	0,72
10	Ayol bo'lgani uchun chidash kerakligi	0,65
11	Jamiyat oldida o'zini oqlay olmaganlik hissi	0,70

Faktorli tahlil natijalariga ko'ra, so'rovnomaning III-bo'limiga tegishli bandlar "Ichki stigmatizatsiya, uyat va o'zini ayblash" nomli ikkinchi omil atrofida birlashgani aniqlandi. Mazkur faktor oilaviy zo'rvonlikka uchragan ayollarda stigma jarayonining ichki psixologik mexanizmlarini, ya'ni jamiyat tomonidan beriladigan salbiy baholarning shaxs tomonidan ichkilashtirilishini ifodalaydi.


Natijalar shuni ko'rsatdiki, ayollarda "uyat", "o'zini ayblash" va "chidash zarur" kabi kognitiv-emosional ustanovkalar shakllanib, bu holat ularning psixologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Faktor yuklamalarining 0,65–0,77 oralig'ida bo'lishi ushbu omilning empirik jihatdan barqaror va mazmunan izchil ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, "uyat sabab his-tuyg'ularni yashirish" ko'rsatkichi eng yuqori yuklama bilan namoyon bo'lib, milliy-madaniy kontekstda "uyat" tushunchasi ayollarning xulq-atvori va emotsional ifodasini cheklovchi asosiy psixologik mexanizm ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'zini ayblash va muammolarni yashirish bilan bog'liq bandlarning yuqori yuklamalari stigmaning ichki

shakli asosan o'z-o'zini past baholash va ichki aybdorlik hissi orqali namoyon bo'lishini bildiradi. Ayollarning zo'rvonlik sabablarini o'z shaxsiy kamchiliklari bilan izohlashga moyilligi yordam so'rash xatti-harakatlarini cheklaydi hamda zo'rvonlik tsiklining davom etishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, "jamiyat oldida o'zini oqlay olmaslik" va "zo'rvonlikka o'zi sababchi deb hisoblash" kabi ko'rsatkichlar ijtimoiy baholarning ichkilashtirilishi natijasida psixologik himoyasizlik kuchayishini ko'rsatadi. "Ayol bo'lgani uchun chidash kerak" degan qarash esa gender stereotiplari ichki stigmatizatsiya tarkibida muhim o'rin tutishini anglatadi.

Umuman olganda, mazkur faktor ichki stigmatizatsiyaning uyat, o'zini ayblash va normativ sabr ustanovkalari orqali shakllanishini hamda bu jarayon ayollarda xavotir va depressiv holatlarning kuchayishiga olib kelishini tasdiqlaydi. Shu sababli, ichki stigma psixoemotsional buzilishlar rivojlanishida muhim psixologik mediator sifatida namoyon bo'ladi.



2.2-diagramma. Uyat va o'zini aylash omili

Ichki stigmatizatsiya, uyat va o'zini ayblash omilini tashkil etuvchi bandlarning faktor yuklamalari doira diagramma ko'rinishida aks ettirilgan. Diagrammadan ko'rinadiki, "Uyat bo'ladi" sabab his-tuyg'ularni yashirish bandi mazkur omil tarkibida eng katta nisbiy ulushga ega bo'lib, ichki stigmatizatsiyada "uyat" mexanizmi yetakchi rol o'ynashini ko'rsatadi. Shuningdek, o'zini aybdor his qilish hamda muammolarni aytishga uyalish bandlari ham yuqori nisbiy yuklamalar bilan ifodalaniib, stigmaning ichkilashtirilishi ko'proq o'zini ayblash va o'zini cheklash orqali namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari oilaviy zo'rvonlikka uchragan ayollarda ijtimoiy stigma murakkab, ko'p qatlamli va chuqur psixologik mexanizmlarga ega hodisa ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida stigma nafaqat tashqi ijtimoiy bosim va stereotiplar shaklida, balki ichki psixologik jarayon — ya'ni ichki stigmatizatsiya ko'rinishida ham namoyon bo'lishi aniqlandi. Ayniqsa, ayollarda "uyat", "o'zini

ayblash" va "chidash zarur" kabi kognitiv-emosional ustanovkalar shakllanishi stigma jarayonining markaziy komponentlari sifatida qayd etildi.

Faktorli tahlil natijalari ichki stigmatizatsiya omilining empirik jihatdan barqarorligini tasdiqlab, uning ayollarning psixoemotsional holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ushbu omil ayollarda xavotir, depressiv holatlar va ijtimoiy izolyatsiyaning kuchayishiga olib kelib, ularning yordam so'rash xulq-atvorini cheklaydi hamda zo'rvonlik tsiklining davom etishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ijtimoiy stigma shakllanishida milliy-madaniy omillar, xususan, "uyat", "oila sha'nini saqlash" va gender stereotiplari muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Bu esa ayollarning o'z huquq va ehtiyojlarini ikkilamchi o'ringa qo'yishiga, zo'rvonlikni yashirishga va ichki psixologik zo'riqishning ortishiga sabab bo'ladi.

Umuman olganda, ijtimoiy stigma oilaviy zo'rvonlik oqibatlarini chuqurlashtiruvchi asosiy psixologik omillardan

biri sifatida namoyon bo'lib, u jabrlangan ayollarning psixologik tiklanish jarayonini murakkablashtiradi. Shu bois, stigma darajasini kamaytirishga qaratilgan psixologik-intervensiya dasturlarini ishlab chiqish, ijtimoiy ongini o'zgartirish va ayollarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Erving Goffman (1963). *Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
2. Bruce Link, & Jo Phelan (2001). Conceptualizing stigma. *Annual Review of Sociology*, 27, 363-385.
3. Judith Herman (1992). *Trauma and Recovery: The Aftermath of Violence—from Domestic Abuse to Political Terror*. New York: Basic Books.
4. Lenore Walker (1979). *The Battered Woman*. New York: Harper & Row.
5. Sylvia Walby (2009). *Globalization and Inequalities: Complexity and Contested Modernities*. London: Sage Publications.
6. Michael Flood (2019). Engaging men and boys in violence prevention. *Palgrave Handbook of Male Psychology and Mental Health*, 607-628.
7. World Health Organization (2021). *Violence against women prevalence estimates, 2018*. Geneva: WHO.
8. United Nations (2015). *The World's Women 2015: Trends and Statistics*. New York: United Nations.
9. United Nations Development Programme (2020). *Gender Equality Strategy 2018-2021*. New York: UNDP.
10. UN Women (2020). *Ending Violence Against Women and Girls: Global Norms and Standards*. New York: UN Women.
11. Akramova, F.A., & Toshtemirova, N. (2019). O'quvchilarda oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarni o'rganish metodikasi. Tashkent.
12. Karimova, V.M. (2018). *Oila psixologiyasi*. Tashkent: O'qituvchi.
13. G'oziev, E.G'. (2017). *Umumiy psixologiya*. Tashkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
14. Baratov, Sh.R. (2020). Oilaviy nizolar va ularning psixologik xususiyatlari. *Psixologiya jurnali*, 3(2), 45-52.
15. Shoumarov, G'.B. (2016). *Ijtimoiy psixologiya asoslari*. Tashkent: Fan.